TEXNIKA YO'NALISHIDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

O'rinov Shuhrat Suyunovich, Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich -
Jizzax politexnika instituti o'qituvchilari
E-mail: qulboyevzohid35@gmail.com

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yoshlarining kamolotga intilish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg'ularini o'stirishda ulkan tadbirlar olib borilmoqda. O'zbek xalqining o'tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an'analarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an'ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o'rin tutadi.

Istiqlol sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma'naviy meros, unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak texnik-muhandis kadrlarni tayyorlashda nafaqat ta'lim berilayotgan fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki talabalarni auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish,ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish,ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy xislatlarni yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishda "ustoz-shogird" an'analaridan foydalanish extiyojga aylanib bormoqda.[1]

Ustoz-shogird an'analari turmush talabidan tarixiy zaruratdan kelib chiqqan. Ustoz-shogird an'analari bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar almashinishiga qaramay uzoq zamonlardan bizga mavjuddir. Bu an'ana davr talabi bilan yangi sharoitda yangicha usullar orqali amalga oshirilsada, biroq maqsad barcha davrda ham bir xil bo'lib, yosh avlodni tizimli kamolotga yetkazishdir. Shuning uchun ham bizga azaldan ustozga aziz inson sifatida qaralgan. Butun mashriq zaminda ustoz-shogirdlik an'anasi chuqur hurmat, izzat-ikrom va o'zgacha oliy maqom qadriyatlar shohsupasining eng to'ridan joy olgan. Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so'zlari aynan ishlatilmasada, ularning burch va vazifalari aks etgan. Ustoz-shogird an'analari-yoshlarda kasbiy mahoratini tarbiyalashi, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishi, izlanishi, o'z ustida mehnat qilishi, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi[2].

Ma'lumki, texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi muhandislar kasb malakasining oshishida ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi.Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib bormoqda

Ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarning keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e’tibor qaratilmoqda.Ustoz-shogirdlik an’analaridan o‘rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda.Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o‘z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e’tibor har qachongiga nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o‘zgarishi borasida to‘plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an’analarini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishga asos bo‘ladigan yangi ta’lim tizimining tashkil etilishidir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi 2020 -yil 23- sentabrdagi 637-sonli qonunini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste‘dod» jamg’armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017-yil 27-iyulda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5121-son Farmoni.

2. Sayidaxmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –Toshkent.: -Fan va texnologiya, 2014.

3. Mahmudov, Z.S., & Najmiddinov, I.B. (2023). Milliy an’analarga asoslangan “ustoz-shogird” tizimidan foydalanish. iqro, 2(2), 330-334.

4. “Pedagogik mahorat” nazariy, ilmiy, metodik jurnal 3-4-son

5. Qulboyev, Z. (2021). Olamni o’rganishda va texnikaning rivojlanishida mexanikaning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9), 366-369.

6. Kh, K. Z. (2022). COMPUTER OF SECTION OF SOLID PHYSICS TEACHING TECHNIQUES USING TECHNOLOGIES. Экономика и социум, (6-1 (97)), 153-156.

7. Qulboyev, Z.X. (2022). O‘quvchilarga ta’lim berishda fundamental fanning o‘rni va ahamiyati. Экономика и социум, (6-1 (97)), 223-226.